MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
AVGUST 8-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ 9
Мусаев Озоджон Шавкат Огли
MAHALLIY BUDJETNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLARINI BAHOLASH 15
Uktamov Fazliddin Faxriddinovich
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РОЗНИЧНЫХ ОПЕРАЦИЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 19
Султонмуродов Сардорбек Баходирович
OLIY TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHINING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) 24
Egamov Sevinchbek
TIJORAT BANKLARINING TO'LOV XIZMATLARI AMALIYOTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI 29
B.B. Xanaliyev
SAMARQAND VILOYATIDA TURISTIK KORXONALAR INNOVASION RIVOJLANISHINI SSENARIYLI PROGNOZLASH 33
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna
MILLIY MODA ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA UNI O'ZLASHTIRISH SHARTLARI 38
Yusupova Moxinur Farxod qizi
HUDUDLAR INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 48
Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich
DAVLAT XARIDLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH 53
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich
«ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ В УЗБЕКИСТАНЕ» 62
Хайруллаева Малика Шухратжон кизи
EMPIRICAL EVALUATION OF THE FACTORS ASSOCIATED WITH APPLICANT BEHAVIOUR IN HIGHER EDUCATION CHOICE: INDIVIDUAL CUT-OFFS, THRESHOLD HETEROGENEITY, AND THE LIMITS OF AGGREGATE DETECTION 68
Umarov Shuhrat Bahodir o'g'li
SANOAT KORXONALARIDA DAVLAT XARIDLARI MOLIYAVIY RISKLARINI BOSHQARISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH 80
Xamdamov Sardor Farmon o'g'li
OLIY TA'LIM MUASSASALARI SAMARADORLIGIGA MARKETING STRATEGIYASI OMILLARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (DEA–MALMQUIST–TOBIT MODELI ASOSIDA) 84
Egamov Sevinchbek
NEFT XOMASHYOSIDAN OLINUVCHI YO'L BITUMLARINING ASOSIY KOLLOID-KIMYOVIY VA EKSPLUATATSION XOSSALARIGA ULARNING UGLEVODOROD GURUH TARKIBINING TA'SIRINI TAHLILI 91
Abdullayeva Shoxista, Adizov Bobirjon
THE IMPACT OF LEADERSHIP SUPPORT ON ACADEMIC STAFF WORK EFFICIENCY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 96
Sultonboyeva Munira, Sultanova Kamila

QURILISH MATERIALLARI BOZORIDA TALAB ELASTIKLIGINI MAHSULOT SEGMENTLARI KESIMIDA EKONOMETRIK BAHOLASH METODIKASI 103
Turdiyev Abdullo Sagdullayevich
IQLIM RISKLARI VA BANK KREDIT PORTFELI SIFATI: XITOY TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON UCHUN METODOLOGIK YONDASHUVLAR 110
Nasriyev Farxod
TIJORAT BANKLARIDA OPERATSION SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI (“HAMKORBANK” ATB MISOLIDA) 116
Haydarova Shohista Shuhrat qizi
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 126
Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o‘g‘li

TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Bank ishi kafedrasi dotsenti v.b., PhD
E-mail: b.maqsudov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-5821-6221

Annotatsiya. Tijorat banklarida muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kredit portfeli sifatini oshirish, qarzdorlarning to‘lov qobiliyatini tiklash hamda bank risklarini kamaytirishda restrukturizatsiya jarayonlarining ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot davomida kredit muddatini uzaytirish, foiz stavkalarini qayta ko‘rib chiqish, qarzni qayta moliyalashtirish va raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Xalqaro tajriba va zamonaviy risk-menejment yondashuvlari asosida amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijasida muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi mexanizmlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: muammoli kreditlar, restrukturizatsiya, tijorat banklari, kredit riski, raqamli iqtisodiyot, risk-menejment, kredit portfeli, moliyaviy barqarorlik.

Аннотация. Исследованы вопросы совершенствования механизмов реструктуризации проблемных кредитов в коммерческих банках. Обоснована значимость процессов реструктуризации для повышения качества кредитного портфеля, восстановления платёжеспособности заёмщиков и снижения банковских рисков в условиях цифровой экономики. В ходе исследования проанализированы такие направления, как продление сроков кредитования, пересмотр процентных ставок, рефинансирование задолженности и использование систем цифрового мониторинга. На основе международного опыта и современных подходов к риск-менеджменту разработаны практические предложения и рекомендации. По результатам исследования предложены механизмы, направленные на сокращение доли проблемных кредитов и укрепление финансовой устойчивости банков.

Ключевые слова: проблемные кредиты, реструктуризация, коммерческие банки, кредитный риск, цифровая экономика, риск-менеджмент, кредитный портфель, финансовая устойчивость.

Abstract. The study examines the improvement of mechanisms for restructuring non-performing loans in commercial banks. It highlights the importance of loan restructuring in improving loan portfolio quality, restoring borrowers’ repayment capacity, and reducing banking risks in the context of the digital economy. The study analyzes loan maturity extensions, interest rate revisions, debt refinancing, and the use of digital monitoring systems. Practical proposals and recommendations are developed based on international experience and contemporary risk management approaches. The study proposes mechanisms aimed at reducing the share of non-performing loans and strengthening banks’ financial stability.

Keywords: non-performing loans, loan restructuring, commercial banks, credit risk, digital economy, risk management, loan portfolio, financial stability.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimi faoliyati tubdan o‘zgarib, kreditlash jarayonlari yanada tezkor va qulay tus olmoqda. Kreditlar hajmining ortishi bilan bir qatorda, muammoli kreditlar ulushini samarali boshqarish ham banklar barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy sharoit, inflyatsion jarayonlar va tashqi omillarni muntazam tahlil qilish qarzdorlarning to‘lov qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda kredit portfeli sifatini barqaror saqlash imkonini beradi. Shu bois tijorat banklarida muammoli kreditlarni samarali boshqarish, xususan, ularni restrukturizatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Restrukturizatsiya jarayoni nafaqat qarzdorning moliyaviy holatini tiklashga, balki bank aktivlari sifatini saqlab qolishga ham xizmat qiladi. Kredit muddatini uzaytirish, foiz stavkasini qayta ko‘rib chiqish yoki qarzni qayta moliyalashtirish kabi choralar muayyan sharoitlarda ijobiy natija berishi mumkin. Ushbu mexanizmlarni ilmiy asosda takomillashtirish va raqamli monitoring vositalari bilan uyg‘unlashtirish bugungi kun talabi

hisoblanadi. Mazkur maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilishning amaldagi holati va ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish yo‘nalishlari tahlil etiladi.

Muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilish — qarzdorning moliyaviy holati yomonlashuvi yoki to‘lov qobiliyati pasayishi natijasida kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni belgilangan muddatda bajarish imkoniyati cheklangan hollarda bank tomonidan kreditning dastlabki shartlarini (muddati, foiz stavkasi, to‘lov grafigi, ta’minot talablari va boshqa shartlar) qayta ko‘rib chiqish va o‘zgartirish orqali qarzni qaytarish jarayonini optimallashtirishga qaratilgan kompleks moliyaviy-iqtisodiy choralar tizimidir.

Mazkur jarayonning asosiy maqsadi qarzdorning xo‘jalik faoliyatini tiklash, uning pul oqimlarini barqarorlashtirish hamda bank aktivlari sifatini saqlab qolishdan iborat. Restrukturizatsiya kreditni bekor qilish yoki qarzni kechirishni anglatmaydi, balki o‘zaro manfaatli shartlar asosida majburiyatlarni qayta tuzish orqali kreditning qaytarilishini ta’minlash mexanizmi hisoblanadi.

Tijorat banklarida muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilish muhim moliyaviy mexanizm hisoblansa-da, eng maqbul yondashuv mijozlarning bunday holatga tushib qolishining oldini olishdir. Chunki har qanday restrukturizatsiya jarayoni bankning muayyan moliyaviy resurslari va vaqtini talab etadi. Shu bois kredit ajratish bosqichidayoq risklarni puxta baholash, mijozning to‘lov qobiliyatini chuqur tahlil qilish va samarali monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Muammoli kreditlarning yuzaga kelishi har doim ham bevosita tijorat banki faoliyatiga bog‘liq emas. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kreditlarning muammoli toifaga o‘tishiga obyektiv va subyektiv omillar ta’sir qiladi. Obyektiv omillar, odatda, bank nazoratidan tashqarida bo‘lgan makroiqtisodiy va tashqi muhit bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, makroiqtisodiy o‘zgarishlar, inflyatsiya dinamikasi, milliy valyuta kursidagi tebranishlar, tabiiy ofatlar yoki pandemiya kabi kutilmagan vaziyatlarni hisobga olish qarzdorlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan choralarni o‘z vaqtida ishlab chiqish imkonini beradi.

Subyektiv omillarni samarali boshqarishda bankning kredit siyosatini takomillashtirish, risklarni baholash sifatini oshirish hamda qarzdorlarning moliyaviy intizomini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, muammoli kreditlarni kamaytirishda nafaqat restrukturizatsiya mexanizmlarini takomillashtirish, balki ularning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilish va profilaktik choralarni kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilish masalasi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, kredit riskini boshqarish bo‘yicha fundamental yondashuvlar Edward I. Altman tomonidan ishlab chiqilgan Z-score modeli orqali asoslab berilgan. U korxonalarning moliyaviy barqarorligini oldindan baholash va ehtimoliy defoltni prognozlash imkonini beruvchi ko‘rsatkichlar tizimini taklif etgan [1]. Bizning fikrimizcha, ushbu model restrukturizatsiya zaruratini erta aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi va zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida uni qo‘shimcha ko‘rsatkichlar hamda real vaqt rejimidagi ma’lumotlar bilan boyitish maqsadga muvofiq.

Kredit riskini miqdoriy baholash nazariyasini rivojlantirishda Robert C. Mertonning strukturaviy modeli alohida ahamiyat kasb etadi. U kompaniya aktivlari qiymati va majburiyatlari o‘rtasidagi nisbat asosida defolt ehtimolini aniqlashni taklif qilgan [2]. Fikrimizcha, Merton modeli restrukturizatsiya jarayonida qarzdorning moliyaviy salohiyatini baholash uchun nazariy asos yaratadi. Amaliyotda uni qo‘llash esa murakkab statistik ma’lumotlar va bozor baholaridan foydalanishni talab qiladi.

Bank risk-menejmenti tizimini takomillashtirish masalalarini o‘rgangan Frederic S. Mishkin bank barqarorligi kredit portfeli sifati bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi. Uning qarashlariga ko‘ra, muammoli kreditlar ulushini samarali boshqarish moliyaviy vositachilik samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega [3]. Muallifning ushbu nuqtayi nazari restrukturizatsiya mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini asoslab beradi, chunki samarali restrukturizatsiya kredit portfelini sog‘lomlashtirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar ham muammoli kreditlarni boshqarishning institutsional jihatlariga e’tibor qaratgan. Ular restrukturizatsiya jarayonida bank va qarzdor o‘rtasida o‘zaro manfaatli yondashuvni shakllantirish, sudgacha bo‘lgan mexanizmlarni kengaytirish va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydilar. Bizning fikrimizcha, bank tizimida raqamli monitoring, skoring va masofaviy nazorat instrumentlarini keng joriy etish restrukturizatsiya samaradorligini yanada oshiradi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy qarashlar muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilishning nazariy asoslarini shakllantirgan bo‘lib, ularni raqamli iqtisodiyot talablari bilan uyg‘unlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uchun ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq statistik hisobotlari, tijorat banklarining yillik moliyaviy hisobotlari, kredit portfeli va muammoli kreditlar bo'yicha e'lon qilingan ko'rsatkichlar, shuningdek, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar hamda xalqaro moliya tashkilotlarining uslubiy materiallarini o'rganish orqali shakllantiriladi. Ma'lumotlarni yig'ishda hujjatlarni tahlil qilish va ikkilamchi statistik ma'lumotlarni tanlab olish usullaridan foydalaniladi. Olingan ko'rsatkichlar qiyosiy, tavsifiy va dinamik tahlil usullari yordamida o'rganilib, muammoli kreditlar ulushi, qaytarish muddatlari hamda sud orqali va suddan tashqari undirish natijalari o'zaro solishtiriladi. Restrukturizatsiya shakllarining xususiyatlari kredit muddatini uzaytirish, foiz stavkasini qayta ko'rib chiqish va to'lov jadvalini o'zgartirish mezonlari bo'yicha tizimlashtiriladi. Shuningdek, qarzdorlarning to'lov qobiliyatini baholashda pul oqimlari, qarzga xizmat ko'rsatish imkoniyati va to'lov intizomiga oid ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Raqamli monitoring va erta ogohlantirish tizimlarining qo'llanishi mavjud ilmiy yondashuvlar bilan qiyoslanib, tahlil natijalari umumlashtiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining barqarorligi ko'p jihatdan kredit portfeli sifatiga bog'liq. Kredit portfelida muammoli kreditlar (NPL — non-performing loans) ulushini samarali boshqarish bank likvidligi, daromadliligi va kapital yetarliligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda kreditlash hajmining kengayishi ayrim banklarda muammoli kreditlar ulushini boshqarishga alohida e'tibor qaratish zaruratini yuzaga keltirgan. Bu esa kredit riskini boshqarish va restrukturizatsiya mexanizmlarini takomillashtirishning ahamiyatini oshirmoqda.


Tahlillar shuni ko'rsatadiki, muammoli kreditlarning yuzaga kelishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi: qarz oluvchilarning moliyaviy holatini yanada chuqurroq o'rganish zarurati, kredit ajratishda biznes-rejalarni real baholashning ahamiyati, tarmoq risklarining yuqoriligi, shuningdek, tashqi iqtisodiy omillar (inflyatsiya darajasi, valyuta kursi tebranishlari, ta'minot zanjiridagi uzilishlar). Kredit monitoringini samarali tashkil etish qarzdorlarning moliyaviy holatidagi o'zgarishlarni erta bosqichda aniqlash, kredit portfeli sifatini saqlash hamda kreditlarning «standart» toifadagi barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Banklar tajribasi shuni ko'rsatadiki, restrukturizatsiya jarayonida ko'pincha muddatni uzaytirish yoki to'lov jadvalini qayta ko'rib chiqish usullaridan foydalaniladi. Xalqaro tajriba, jumladan, Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki tavsiyalariga ko'ra, samarali restrukturizatsiya kompleks yondashuvni talab qiladi. Ya'ni qarz oluvchining pul oqimlari qayta tahlil qilinishi, biznes modelining barqarorligi baholanishi, zarur hollarda qo'shimcha garov, kapital qo'yilma yoki investor jalb etilishi lozim.

Muammoli kreditlarning yuzaga kelishiga, asosan, quyidagi omillar ta'sir ko'rsatmoqda:

- Kredit restrukturizatsiyasi bo'yicha yagona ichki metodikani yanada takomillashtirish zarurati;
- Kredit qo'mitalarida risk-menejment xulosalarini kengroq inobatga olish zarurati;
- Qarz oluvchilar bilan muzokara olib borish kompetensiyasini oshirish imkoniyatlari;
- Muammoli kreditlar bilan ishlovchi alohida bo'linmalar samaradorligini yanada oshirish zarurati.

Tijorat banklari uchun berilgan kreditlarning qaytarilishi juda muhim hisoblanadi, chunki banklar asosiy daromadlarining muayyan qismi kreditlar hisobiga shakllanadi. Shu sababli tijorat banklari kreditlarning qaytarilishini ta'minlash uchun bir nechta muhim usullardan foydalanadi. Muammoli kreditlarni sog'lomlashtirishning yana bir usuli — restrukturizatsiya. Amaliyotda restrukturizatsiyaning asosiy shakllariga kredit muddatini uzaytirish, foiz stavkasini qayta ko'rib chiqish, asosiy qarzni bo'lib-bo'lib to'lash jadvalini tuzish, imtiyozli davr (grace period) berish hamda qarzni qayta moliyalashtirish kiradi. Mavjud mexanizmlarni yanada takomillashtirishda restrukturizatsiya qarorlarini qabul qilishga individual yondashish, qarzdorning real pul oqimlarini chuqur tahlil qilish, shuningdek, restrukturizatsiyadan keyingi monitoring tizimi samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Quyida muammoli kreditlarni suddan tashqari va sud orqali undirish hajmini ko'rib chiqamiz.



1-rasm. Muammoli kreditlarni qaytarish jarayonining tashkiliy-huquqiy samaradorlik ko‘rsatkichlari [4][1]

Rasm ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2021-yilda sud orqali undirish ulushi 52 foizgacha oshgan, ayni paytda o‘rtacha qaytarish muddati 18 oyni tashkil etgan. Bu holat banklarning muammoli kreditlarni undirishda huquqiy mexanizmlardan foydalanishi bilan bir qatorda, jarayonning umumiy samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligini anglatadi. Amaliy kuzatuvlar sud jarayonlarining davomiyligini optimallashtirish, protsessual xarajatlarni kamaytirish va ijro bosqichidagi jarayonlarni takomillashtirish kreditlarning tezkor qaytarilishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

2022–2024-yillarda esa ijobiy siljish kuzatilgan. Xususan, suddan tashqari kelishuvlar ulushi 32 foizdan 44 foizgacha izchil oshgan, maxsus undirish bo‘linmalarining samaradorlik indeksi esa 58 balldan 75 ballgacha ko‘tarilgan. Bu ko‘rsatkichlar banklarda tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarining takomillashganini, muammoli kreditlar bilan ishlashda yanada tizimli yondashuv shakllanganini ko‘rsatadi. Natijada o‘rtacha qaytarish muddati 12 oygacha qisqarib, undirish jarayonining tezkorligi va natijadorligi sezilarli darajada oshgan.

Institutsional samaradorlikning texnologik jihatini baholash maqsadida raqamli monitoring va erta ogohlantirish tizimlarining qaytarish jarayoniga ta’siri ham alohida o‘rganildi. Tahlil davomida banklar tomonidan joriy etilgan skoring modellari, avtomatlashtirilgan qarzdorlar monitoringi hamda ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish mexanizmlarining amaliy natijalari solishtirildi. Olingan xulosalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalar muammoli kreditlar bilan ishlashda nafaqat reaktiv, balki profilaktik funksiyani ham bajarmoqda. Ya’ni ular qarzdorning moliyaviy holatidagi o‘zgarishlarni erta aniqlash orqali kreditning chuqur muammoga aylanishining oldini olishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalariga ko‘ra, restrukturizatsiya mexanizmlarini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi:

Birinchidan, erta ogohlantirish (early warning system) tizimini kuchaytirish zarur. Bunda moliyaviy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi, to‘lov intizomidagi uzilishlar va aylanma mablag‘larning qisqarishi kabi indikatorlar asosida avtomatik monitoring yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Ikkinchidan, restrukturizatsiya turlarini diversifikatsiya qilish maqsadga muvofiq: foiz stavkasini vaqtincha pasaytirish, asosiy qarzni to‘lash bo‘yicha imtiyozli davr (grace period) berish, qarzni kapitalga konvertatsiya qilish (yirik loyihalarda) va sindikatlash mexanizmlaridan foydalanish.

Uchinchidan, muammoli kreditlar bilan ishlovchi maxsus «work-out» guruhlarini tashkil etish va ularning faoliyatini KPI asosida baholash lozim. Bu kreditlarni sudgacha hal etish ulushini oshiradi va bank xarajatlarini kamaytiradi.

To‘rtinchidan, restrukturizatsiya jarayonida shaffoflikni ta’minlash hamda qayta moliyalashtirishning kredit portfelini haqiqiy sog‘lomlashtirishga xizmat qilishini ta’minlash muhim. Bu bank balansidagi risklarni o‘z vaqtida

1 Muallif ishlanmasi

aniqlash va samarali boshqarish imkonini beradi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, muammoli kreditlarni samarali restrukturizatsiya qilish bankning moliyaviy barqarorligini tiklash, kredit portfeli sifatini yaxshilash va kapital yetarliligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Taklif etilgan mexanizmlarni amaliyotga joriy etish natijasida muammoli kreditlar ulushi bosqichma-bosqich kamayishi, kredit risklari diversifikatsiyasi kuchayishi hamda bank tizimiga bo‘lgan ishonch ortishi kutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Altman E. I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // The Journal of Finance. – 1968. – Vol. 23, No. 4. – P. 589–609. – DOI: https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1968.tb00843.x .
2. Merton R. C. On the Pricing of Corporate Debt: The Risk Structure of Interest Rates // The Journal of Finance. – 1974. – Vol. 29, No. 2. – P. 449–470.
3. Mishkin F. S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – 10th ed. – Boston: Pearson Education, 2013. – 720 p.
4. Uroqov J. T. Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish va qaytarish samaradorligini oshirishning institutsional mexanizmlari // Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali. – 2026. – 9-jild, 1-son. – ISSN 3060-4818. – URL: https://worldlyjournals.com/index.php/ituy/article/view/23462 .

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100